

## XIX-XX asrlarda Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya tizimi

Azamat Ahmadali-o'g'li Boydavlatov  
azamatboydavlatov77@gmail.com  
Nozima Mirzajon-qizi Xakimova  
nozimaxakimova24@gmail.com  
NamDPI

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr davomida Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishini yoritib beradi. Maqolada an'anaviy maktab va madrasalardagi o'qitish uslublarining o'zgarishi, Jadidchilik harakatining ma'rifiy ahamiyati hamda sovet hokimiyati yillarida tizimning to'liq dunyoviylashuvi jarayonlari qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, ta'lim evolyutsiyasi, maktab, madrasa, Jadidchilik, usuli jadid, dunyoviy ta'lim, sovet islohotlari, pedagogika, ma'rifatparvarlik

## The education system in Central Asia in the 19th-20th centuries

Azamat Ahmadali-oglu Boydavlatov  
azamatboydavlatov77@gmail.com  
Nozima Mirzajon-kizi Khakimova  
nozimaxakimova24@gmail.com  
NameSPI

**Abstract:** This research outlines the gradual evolution of the educational system in Central Asia during the late 19th and the entire 20th century. The study provides a comparative analysis of the transformation of teaching methods in traditional maktab and madrasas, the educational significance of the Jadid movement, and the complete secularization of the system during the Soviet era.

**Keywords:** Central Asia, evolution of education, maktab, madrasa, Jadidism, Usul-i Jadid, secular education, Soviet reforms, pedagogy, enlightenment

### KIRISH

Markaziy Osiyo tarixining eng murakkab va ziddiyatli davri bo'lgan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari mintaqa ma'naviy hayotida tub burilish yasadi. Ushbu davrda ta'lim tizimi shunchaki bilim berish vositasi emas, balki milliy o'zlikni

anglash va mustamlakachilik kishanlaridan qutulishning strategik quroliga aylandi. Bugungi kunda O'zbekiston o'zining Yangi Uyg'onish davrini qurayotgan bir paytda, o'tmishdagi ushbu evolyutsion jarayonlarni tahlil qilish strategik ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida mintaqa ta'lim tizimi sxolastika (eski aqidalar) changalida qolib ketgan edi. Muammo shundaki, an'anaviy ta'lim global texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga javob bera olmay qoldi. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlarida "Qanday o'qish va o'qitish kerak?" degan fundamental savolni keltirib chiqardi.

Ushbu maqolaning maqsadi - an'anaviy maktab-madrasalardan zamonaviy jadid maktablari va keyinchalik sovet modeliga o'tish jarayonining ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ta'limdagi ushbu evolyutsiya mintaqaning keyingi yuz yillikdagi intellektual yo'nalishini qanchalik belgilab berganini ilmiy asoslashdir.

## METODLAR

An'anaviy maktab ta'limi va "Usuli jadid" maktablarining o'quv dasturlari, darsliklari hamda o'qitish metodikalari o'zaro qiyoslandi. Mavzu doirasida obyekt sifatida XIX-XX asr boshlari Markaziy Osiyo ta'lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti va predmet jadid ma'rifatparvarlarining ta'limni isloh qilish borasidagi amaliy faoliyati, xotin-qizlar maorifini yo'lga qo'yish, ko'p tillilik konsepsiyasi va yangi avlod darsliklarining o'ziga xos xususiyatlari etib belgilandi.

Foydalanish uchun manbaa sifatida jadidchilik harakati namoyondalarining asarlaridan ("Adibi avval", "Adibi us-soniy", "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy", "Lug'ati sitta al-sina") olindi, shu bilan birga, tanlangan ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) o'rganildi.<sup>1</sup>

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar faqat pedagogik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy va texnologik (matbaachilik, teatr) omillar bilan uzviylikda ko'rib chiqildi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Markaziy Osiyo pedagogikasidagi evolyutsion o'zgarishlarning quyidagi muhim bosqichlari aniqlandi:

Darsliklar va o'quv dasturlari: Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan 1901-yilda usuli jadid maktabini ochgan va shu maktablar uchun maxsus o'quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergan. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan "Adibi avval" ("Birinchi adib", 1907) alifbe kitobi, "Adibi us-soniy" ("Ikkinchi adib", 1907). Unda "Himmatli faqir" she'ri keltirilgan) o'qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan. 1904-yildan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906-yildan O'rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy, "Taraqqiy" gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gazetasini tashkil etgan. 1908-yil uning "Sabzazor" (to'plam), "Yer yuzi"

<sup>1</sup> „Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931)“. zyouz.com.

(geografiyadan), "Tajvidal Qur'on" (Qur'onni o'qish usulini o'rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo'llangan. "Shuhrat" (1907), "Tujjor" (1907), "Osiyo" (1908) gazetalarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan.<sup>2</sup>

Dunyoviylashuv va fanlar integratsiyasi: Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimiga dunyoviy fanlarni (geografiya, tarix) tizimli ravishda olib kirdi. Uning "Ikki emas, to'rt til lozim"<sup>3</sup> konsepsiyasi mintaqada milliy, mintaqaviy va xalqaro aloqalarni ta'minlovchi lingvistik modelni yaratdi. Behbudiy ta'lim evolyutsiyasida tillarni o'rganish masalasini birinchi o'ringa qo'ydi. U o'zining mashhur "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasida yoshlarga: Turkiy (o'zbek) va Fors tillarini - milliy o'zlik va tarixni anglash uchun; Rus tilini - davlat idoralari va qonunchilik bilan ishlash uchun; Arab tilini - diniy manbalarni to'g'ri tushunish uchun o'rganishni shart qilib qo'ydi. Behbudiy "usuli jadid" maktablari uchun nafaqat nazariya, balki amaliy qo'llanmalar ham yaratdi. Uning "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" (Umumiy geografiya tanlanmasi) darsligi mintaqa maktablarida dunyoviy fanlarning tizimli o'qitilishiga poydevor bo'ldi. Bu darslik orqali o'quvchilar ilk bor koinot, qit'alar va davlatlar haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lishdi.

Xotin-qizlar ta'limi: Abduqodir Shakuriy va uning turmush o'rtog'i Roziya otin tomonidan 1907-yilda ilk bor qizlar uchun "Usuli jadid" maktabining tashkil etilishi ta'limda gender tengligi va "ona tarbiyasi - millat tarbiyasi" tamoyilini amaliyotga tatbiq etdi. Uning mashhur darsliklaridan biri fors tilidagi "Savod o'rgatish yo'riqnomalari" (tojikcha - Rahnamoi savod)dir. "Jomi-ul-hikoyat" (1907), "Zubdat-ul-ashar" (1907) kabi darsliklar ham yozgan. Darsliklarning bir qismi Saidahmad Vasliy va Mahmud Behbudiy bilan hamkorlikda yozilgan.<sup>4</sup>

U barpo etgan yangi ta'lim tizimi o'sha paytdagi jamiyatni hayron qoldiradi va hu bilan bir qatorda hayotini o'zgartiradi. Shakuriyning "*Xotin-qizlar bilimli bo'lsa, butun millat bilimli bo'ladi*" g'oyasi, aynan, bugungi kundagi eng yahshi ayol pedagoglar, shifokorlar va hattoki vazirlar yetishib chiqishiga zamin bo'la oldi.

Pedagogika fanlari doktori, professor S.Rajabov "Turkistonda yangi usul maktablarining shakllanishini pedagogik innovatsiya sifatida tahlil qilgan. Abduqodir Shakuriy va uning izdoshlari yaratgan darsliklar (masalan, "Rahnomai savod") bolaning ruhiyatiga mos ravishda, osondan murakkabga tamoyili asosida tuzilganini ta'kidlaydi. Bu davr pedagogikasi o'zbek xalqining intellektual salohiyatini bir necha barobar tezroq o'sishiga xizmat qilgan" deya fikr bildiradi. Olim o'z asarida (O'zbekistonda sovet maktabining qurilish tarixidan) 19-20 asr pedagogikasini ta'limga yo'naltirilgan innovatsiya deyishiga asosiy sabab "Abjad" usulidan "Savtiya"

<sup>2</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>3</sup> Begali Qosimov „Mahmudxo'ja Behbudiy“. kh-davron.uz

<sup>4</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

(tovush) usuliga o'tilishi, sinf-dars tizimining (parta, doska, xarita, imtihonlar) joriy qilinishi, din bilan birga aniq va tabiiy fanlarning o'qitilishi bo'ldi.<sup>5</sup>

Sadriddin Ayniy nafaqat jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi, balki o'sha davr pedagogikasi va ta'lim tizimini professional tahlil qilgan eng yirik mutafakkirlardan biridir. Uning 19-asr oxiri va 20-asr boshidagi maktablar haqidagi fikrlari asosan uning avtobiografik asarlari va ilmiy-publitsistik maqolalarida aks etgan. Jumladan, u Shakuriyning ta'lim tizimi haqida quyidagicha fikr keltiradi "Shakuriy maktabiga kirgan bola bir necha oy ichida nafaqat o'qishni, balki fikrini qog'ozga tushirishni (yozishni) ham o'rganadi. Bu - mo'jiza". Pedagogika fani borasida Ayniyning "Maktab - millatning tirikligi, kelajagi va najotidir. Agar maktab isloh qilinmasa, millat halokatga mahkumdur." degan so'zlari ta'lim evolyutsiyasida ma'lum ma'noda shior rolinio'ynaydi. Buning manbaasi sifatida "Tahzib us-sibyon" (Bolalar tarbiyasi) asarini keltirishimiz mumkin. Adib ushbu asarda o'z hamkasblarining pedagogik mahoratlari hamda ta'limda dunyoviy bilimlarni ham o'qitib yosh avlodni dunyoni anglashiga va kelgusida ular o'zlaridab ham yaxshiroq kelajak barpo qilishiga bo'lgan say-harakatlari haqida yozib o'tadi.<sup>6</sup>

#### MUHOKAMA

Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abduqodir Shakuriy o'zbek pedagogikasi tarixida shunchaki islohotchi emas, balki zamonaviy milliy ta'lim tizimining arxitektorlari hisoblanadi. Ular yaratgan darsliklar bugungi kun pedagogikasining ustunidir. Masalan "Usuli savtiya" bolaning tovush o'rganish savodxonligini bir necha yildan bir necha oygacha qisqarishiga olib keldi va o'quvchi qolgan vaqtini geografiya, tarix (Munavvarqori Abdurashidxonov yaratgan tizim bo'yicha) va til o'rganish (Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" g'oyasi asosida) fanlarini o'qishdi. Aynan shu tizim asosida o'qitilgan bolalar keyinchalik ham savod jihatdan boshqalardan ajralib turar edi (Fitrat, Cho'lpon kabi buyuk shaxslarni olishimiz mumkin).

Abduqodir Shakuriy tomonidan joriy etilgan tovush metodi (usuli savtiya) ta'lim oluvchining vaqtini tejashga yordam berdi. Bu metod o'quvchining savodxonlik darajasini keskin oshirdi va pedagogikada "bolaga yo'naltirilgan ta'lim" (student-centered learning) tamoyilini yuzaga keltirdi. Individuallik va gender tengligi asosida tahsil olganlar keyinchalik ham dunyo qarashi kengligi bilan boshqalardan ko'zga tashlanib turishar edi. Misol tariqasida quyidagi shaxslarni ko'rsatishimiz mumkin:

Sadriddin Ayniy: Tojik va o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi. U Shakuriy maktabining o'qitish uslubini shunchalik yuqori baholaganki, Buxoroda ham aynan shu modeldagi maktablarni ochishga harakat qilgan.

<sup>5</sup> Rajabov S. O'zbekistonda sovet maktabi qurilishi tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1957. – 236 b.

<sup>6</sup> Ayniy S. Tahzib us-sibyon (Bolalar tarbiyasi). – Samarqand: 1909.

Hoji Muin: Samarqandlik mashhur jadid, dramaturg va jurnalist. U Shakuriyning nafaqat shogirdi, balki eng sodiq izdoshlaridan biri bo'lgan.

Saidrizo Alizoda: Tilshunos, "Turkiston" gazetasi tahririyatida ishlagan va bir qancha darsliklar muallifi.

Abdushukur Shukuriy: Keyinchalik mashhur adabiyotshunos olim bo'lib yetishgan.

Roziya Otin o'z davrining jasoratli ayoli bo'lib, u erining maktabi yonida ilk bor qizlar uchun jadid maktabini tashkil qilgan (1907-yil). U eski usuldagi "otinoyi" maktablaridan farqli o'laroq, qizlarga dunyoviy bilimlar, hisob (matematika), jo'g'rofiya va amaliy san'at (tikuvchilik, kasanachilik)ni o'rgatgan. Uning qo'lida tahsil olgan o'nlab Samarqandlik qizlar keyinchalik ilk o'zbek o'qituvchi ayollari, hamshiralari va jamoat faollari bo'lib yetishishdi. Ular orasida Ma'mura Sultonova kabi ma'rifatparvar ayollarni ko'rish mumkin (Dolimov, 2011).<sup>7</sup>

## XULOSA

Ushbu tadqiqot XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo ta'lim tizimida yuz bergan transformatsion jarayonlarni tahlil qilib, quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Markaziy Osiyoda ta'lim an'anaviy diniy maktab va madrasalardan bosqichma-bosqich dunyoviy bilimlarga yo'naltirilgan "Usuli jadid" maktablari hamda keyinchalik sovet modelidagi ta'lim tizimiga o'tdi. Bu jarayon shunchaki o'qitish uslubining o'zgarishi emas, balki jamiyatning dunyoqarashini modernizatsiya qilishga bo'lgan intilish edi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Munavvarkori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning faoliyati natijasida mintaqada ilk bor ona tilida yozilgan darsliklar, tabiiy fanlar va geografiya kabi fanlarning o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Bu bosqich milliy uyg'onish (Renessans) uchun poydevor vazifasini o'tadi.

Evolutsion jarayon ikki xil bosim ostida kechdi: bir tomondan chor Rossiyasining mustamlakachilik ta'lim siyosati (rus-tuzem maktablari), ikkinchi tomondan esa mahalliy ulamolarning konservativ qarashlari. Shunga qaramay, intellektual qatlam bu ikki qutb orasida milliy o'zlikni saqlab qoluvchi "oltin o'rta"ni topishga muvaffaq bo'ldi.

XX asr boshidagi ta'lim islohotlari mintaqada savodxonlik darajasining keskin oshishiga va professional kadrlar qatlamining shakllanishiga xizmat qildi. Ushbu davrdagi tajriba bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish va milliy qadriyatlarni zamonaviy standartlar bilan uyg'unlashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

<sup>7</sup> Dolimov, U. (2011). *Turkistonda jadid maktablari*. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 112-115-betlar.

Xulosa qilib aytganda, XIX-XX asrlardagi ta'lim evolyutsiyasi mintaqani o'rta asrlarga xos turg'unlikdan zamonaviy rivojlanish yo'liga olib chiqqan asosiy omil bo'ldi. Bu davrdagi o'zgarishlar bugungi kungi Uchinchi Renessans poydevori uchun tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Munavvarqori Abdurashidxonov" (1878-1931)". ziyouuz.com
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Begali Qosimov „Mahmudxo'ja Behbudiy“. kh-davron.uz
4. Rajabov S. O'zbekistonda sovet maktabi qurilishi tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1957. – 236 b.
5. Ayniy S. Tahzib us-sibyon (Bolalar tarbiyasi). – Samarqand: 1909.
6. Dolimov, U. (2011). Turkistonda jadid maktablari. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 112-115-betlar.
7. Nuritdinova, G. I. Q., & Kamalova, A. (2026). O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOYIY KOMPOTENTLIGI. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (2), 27-29.
8. Ismatullayeva, S. T. Q., & Kamolova, A. O. (2026). Pedagoglarni kasbiy rivojlanishlarida nazariy va amaliyotning ahamiyati. Science and Education, 7(2), 540-542.
9. Avazjon o'g'li, A. R., & qizi KHOLIKOV, K. A. O. (2026). O'ZBEKISTONDA MILLIY MAKTAB MUOMMOSI BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY YECHIMLARI. TADQIQOTLAR, 77(2), 136-140.
10. Mutalov, S. X. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2026). Bola tarbiyasida iqtisodiy va ekologik tarbiyaning ahamiyati va o'rni. Science and Education, 7(2), 255-259.
11. Abduqodirov, A. A. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Muzeylarning inson ongiga ta'siri va ijtimoiy roli. Science and Education, 6(3), 191-194.
12. Yuldashev, J., & Xayrullayeva, N. J. (2026). O'qituvchi shaxsiyati ta'lim va tarbiya samaradorligining asosiy omili. Science and Education, 7(4), 580-585.
13. Yo'ldashev, J., & Xoljigitov, D. (2025, November). MATEMATIKA O'QITUVCHILARI UCHUN RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI. In Scientific practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 459-462).